

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI  
TARBIYACHILARINING UMUMMADANIY KOMPETENTLIGINI  
SHAKLLANTIRISHNING MAZMUNI**

Olimova Dilrabo Nurali qizi

Namangan davlat pedagogika instituti Maktabgacha va  
boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi  
[dilrboolimova1993@gmail.com](mailto:dilrboolimova1993@gmail.com)

**Annotatsiya :**

Ushbu maqola hozirgi kunda dolzarb bo'lib hisoblangan masala, ya'ni bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining umummadaniy, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik shart sharoitlarning mazmuni, xususiyatlari, pedagog fan va texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishi, o'z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo'llay olishi, umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib borishi pedagogik mahoratini shakllantirishga qaratilgan izchil bir tizim haqida gap boradi.

**Kalit so'zlar.** Kasbiy kompetensiyasi, umummadaniy kompetensiyasi, pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyat, pedagogik faoliyat.

**СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ОБЩЕЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ  
ПЕДАГОГОВ ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ  
ОРГАНИЗАЦИЙ**

Дочь Олимовой Дильрабо Нурали, преподаватель кафедры методики дошкольного и начального образования Наманганского государственного педагогического института  
[dilrboolimova1993@gmail.com](mailto:dilrboolimova1993@gmail.com)

**Аннотация:**

В данной статье рассматривается вопрос, который считается актуальным на сегодняшний день, то есть содержание и характеристика педагогических условий, направленных на формирование общекультурных и профессиональных компетенций воспитателей будущих дошкольных образовательных организаций, использование



новейших достижений в развитии педагогической науки и техники, речь идет о целостной системе, направленной на формирование педагогических навыков, умения эффективно использовать новые педагогические технологии в профессиональной деятельности, овладение общими и специальными знаниями, а также совершенствование и развитие способностей в процессе приобретения профессиональные навыки.

**Ключевые слова.** Профессиональная компетентность, общекультурная компетентность, педагогическое мастерство, педагогическое умение, педагогическая деятельность.

## **THE CONTENT OF FORMING THE GENERAL COMPETENCE OF TEACHERS OF PRE-SCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

Daughter of Olimova Dilrabo Nurali,

Teacher of the Department of Preschool and Primary Education

Methodology, Namangan State Pedagogical Institute

[dilraboolimova1993@gmail.com](mailto:dilraboolimova1993@gmail.com)

### **Annotation:**

This article deals with the issue that is considered relevant today, that is, the content and characteristics of the pedagogical conditions aimed at the formation of general cultural and professional competencies of educators of future preschool educational organizations, the use of the latest achievements in the development of pedagogical science and technology, It is about a coherent system aimed at the formation of pedagogical skills, the ability to effectively use new pedagogical technologies in professional activities, mastering general and special knowledge, as well as improving and developing abilities in the process of acquiring professional skills.

**Keywords.** Professional competence, general cultural competence, pedagogical skill, pedagogical ability, pedagogical activity.

### **Kirish**

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli farmonida ko'rsatilganidek, maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va



barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq, o'tkazilgan tahlillar maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimida variativ dasturlar joriy etilmagan, bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha muqobil, moslashuvchan modellar yetarli darajada rivojlanmagan hamda taraqqiy etgan mamlakatlar singari ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, matematik, jismoniy va ijodiy rivojlantirish, atrof muhit bilan tanishuvga yo'naltirilgan maxsus davlat ta'lim dasturlari tatbiq qilinmagan.

Davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lib, bolalarni maktab ta'limiga talab darajasida tayyorlash imkonini bermaydi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim sifati monitoringini yuritish tuzilmaviy va tashkiliy jihatdan nazarda tutilmaganligi sababli, maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonining sifati va samaradorligini baholash zamon talablariga javob bermaydi. Xorijiy davlatlar ilg'or tajribasining tahlili zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratishga yo'naltirilganligi bilan tavsiflanib, bolaning ijobiy ijtimoiylashuvi imkoniyatlarini namoyon qilish, uning har tomonlama shaxsga oid ma'naviy-axloqiy va ongli rivojlanishi, maktabgacha yoshga oid tegishli faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI:**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bo'lajak tarbiyachilarining umummadaniy va kasbiy kompetentligini ifodalovchi adabiyotlar 1 O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoevning 2017 yil 30 sentyabrdagi PF-5198-sonli farmonida. Ko'plab tadqiqotchilar bu muammoning yechimini topish maqsadida turli yo'nalishlar va yondoshuvlar asosida tadqiqotlar olib borganlar, dastlabki maktabgacha ta'limga turli xil metod va vositalarni qo'llash orqali ma'lum samaradorlikka erishganlar. Xususan, respublikamiz olimlaridan Qodirova F.R, Toshpo'latova Sh.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. Maktabgacha ta'lim



tarbiyachilarining pedagogik mahorati va qobiliyatidan foydalanish masalalari bilan Axmedjanov M.M., Xo‘jayev B.Q., Hasanova Z.D. 3kabi bir qator tadqiqotchi olimlar shug‘ullanganlar. Ularning ishlarida tarbiyachilarning bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim vositasi ekanligi ta’kidlanadi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, samarali davlat boshqaruvi tizimini yaratish, maktabgacha ta’lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha ta’limvazirligi, Toshkent shahar maktabgacha ta’lim boshboshqarmasi, viloyatlar maktabgacha ta’lim boshqarmalari hamda ularning tuman (shahar)lardagi bo‘limlari tashkil etilsin.

2. Quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligining asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari etib belgilansin:

birinchidan, maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish;

ikkinchidan, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

uchinchidan, respublika davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalari orasida sog‘lom raqobat muhitini yaratish hisobiga barcha bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalariga bosqichma-bosqich qamrab olinishini ta’minlash, ularga soliq imtiyozlari va referensiyalar berish, byudjetdan subsidiyalar ajratish, shuningdek, bolalarning maktabgacha ta’limi va tarbiyasining muqobil shakllarini amaliyotga tatbiq etish;

to‘rtinchidan, zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni, ta’lim va tarbiyaning samarali shakllari hamda usullarini ta’lim-tarbiyajarayoniga, shu jumladan nodavlat sektorida joriy etish;



beshinchidan, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'minlash;

oltinchidan, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni hisobga olgan holda bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

ettinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirish tizimini yaratish va tajribali yuqori malakali va kasbiy jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar hamda tarbiyachilarni ta'lim-tarbiya jarayoniga jalb qilish;

sakkizinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarining ratsional va belgilangan me'yorlar asosida sog'lom va to'g'ri ovqatlanishini ta'minlash uchun munosib sharoitlar yaratish, ko'ngil ochar va bilim beruvchi mashg'ulotlar elementlari bo'lgan, hajmlari va intensivligi asosiy tibbiy taqdimnomalar bilan belgilanuvchi serharakat o'yinlar va mashqlar uyushtirish; to'qqizinchidan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi.

O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohasini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis». Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib tarbiyachining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

- 1) madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql zakovatning yuksak ko'rsatkichi;
- 2) o'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi;
- 3) pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi;
- 4) O'quv – tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

- 1) pedagogik insonparvarlik yo'nalishi;
- 2) kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish;





- 3) pedagogik qobiliyatga ega bo'lish;
- 4) pedagogik texnikasirlarini puxta egallash.

Barcha kasblar orasida pedagoglik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, pedagog yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy -siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqshsodiy vaziyatlarni hal etadi. Pedagogik mahorat pedagogning pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi. Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan pedagoglar mehnati faoliyatidir. Pedagog o'z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim:

- Pedagogik faoliyatning maqsadi.
- Pedagogik faoliyatning obekti va sub'ekti.
- Pedagogik faoliyatning vositasi.

Xo'sh pedagogik mahoratning o'zi nima? Unga hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan quyidagicha ta'rif beriladi: Pedagogik mahorat - pedagogning shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo'lib, pedagogning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta'minlovchi faoliyatdir.

Pedagogning kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

- 1) pedagogning shaxsiy fazilatlar bo'yicha tayyorgarligi;
- 2) pedagogning ruhiy – psixologik tayyorgarligi;
- 3) pedagogning ijtimoiy - pedagogik va ilmiy - nazariy jihatdan tayyorgarligi;
- 4) pedagogning maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi;

Pedagog faoliyatida pedagogik qobiliyat va uning o'ziga xos xususiyatlari. Pedagog eng avvalo, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to'g'ri baholay oladigan hamda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqq olishi kerak. Muloqot jarayonida pedagogning so'zlaridan suhbatdoshiga



nisbatan xayrixohlik, samimiylilik, do‘stona munosabat, yaxshi kayfiyat sezilib tursin.

Hozirgi sharoitda jamiyatning pedagoglik kasbiga nisbatan qo‘yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to‘g‘ri tashkil qilish vazifasi pedagogga bog‘liq. Ijodiy faoliyat olib boruvchi pedagog faqatgin ta‘lim oluvchilarni muvaffaqiyatli o‘qitish va tarbiyalash, ilg‘or pedagoglar ish tajribalarini o‘rganish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko‘nikma va malakalariga ham ega bo‘lishi zarur.

Hozirgi zamon pedagogi fan va texnika taraqqiyotining eng so‘nggi yutuqlaridan foydalanishi, o‘z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo‘llay olishi taqozo etiladi. Qobiliyat – shaxsning individual-psixologik xususiyati bo‘lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish sub‘ektiv shart–sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig‘indisiga aytiladi, zarurbo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi. Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo‘lgani sababli, shaxsning boshqa sifatleri va xususiyatlariga, ya‘ni aql sifatlariga, xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg‘ulariga qarama-qarshi qo‘yilmaydi, balki ular bilan bir qatorga qo‘yilishi kerak. Qobiliyatni inson tug‘ma, tabiat in‘omi sifatida tayyor holda olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi. Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to‘plami deb atadi va uning

yettita jihatini ajratib ko‘rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini pedagog pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va pedagogning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta‘kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko‘rsati bo‘tadi:

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati: Pedagogning dars va darsdan tashqari jarayonlarda guruhda ijobiy ruhiy iqlim yarata olishi.
2. Voqealarni oldindan ko‘ra olish qobiliyati: ushbu qobiliyat turi har bir pedagogning sergakligida, ta‘lim oluvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko‘ra olishida namoyon bo‘ladi. Shunda pedagog kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.
3. Eshitish va his qilish qobiliyati: Bunday qobiliyatga ega bo‘lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida yaxshi



o‘qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa she‘r va qo‘shiqlarni sevib tinglaydi.

4. Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat: pedagogning o‘z hatti harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilib yo‘naltiradi, vaqtni, harakat sur‘atini his qilish, maishiy qulayliklarni yarata olish,, hayot marhamatlaridan rohatlanish.

5. Mantiqiy qobiliyat: mulohaza yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni evish, sababiyat va natijalarni tushunish malakasi, voqelikda asosiyini ikkinchi darajalisidan ajrata olish;

6. Shaxsning ichki qobiliyati: o‘z-o‘zini bilish, tushunish va his qilish qobiliyati. Erkin shaxsda qo‘rquv yoki noerkinlik tuyg‘usi kamdan-kam holda bo‘ladi.

Qobiliyat pedagogning individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli pedagoglar o‘z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko‘proq yutuqlarga erishadilar. Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta‘minlaydi. Qobiliyatlik ishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kiritadi. Qobiliyat bilimdan farq qiladi.

Bilim – bu ilmiy mutolaa natijasidir, qobiliyat esa insonning psixologik va fiziologik tuzilishi xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo‘lib, shu bilan birga, u ma‘lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o‘zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi. Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko‘nikma va malakalardir.

Ko‘nikmalar – pedagogning kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usulidir.

Malakalar – pedagogning ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig‘indisidir. Ular pedagog kasbiy faoliyati mexanizmining asosini tashkil qiluvchi jarayonlardir, ular qobiliyat bilan birgalikda pedagogik mahoratga erishishni ta‘minlaydilarki, buning natijasida pedagog kasbiy faoliyatida ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo noshud pedagog ko‘p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko‘nikma va malakalarda ro‘yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko‘nikma va malakalari ko‘p qirrali va mukammallashgan bo‘ladi. Ko‘nikmalarni umumlashtirib mohirlik ham deb





ataydilar. Mohirlik ham qobiliyatning o‘zginasidir. Demak, qobiliyat ko‘nikma va malakalarning paydo bo‘lish jarayonida shakllanadi.

Pedagogning pedagogik qobiliyatini tahlil qilgan N.V.Kuzmina shunday yozadi: “Ta’lim – tarbiyada ro‘y beradigan ko‘pgina kamchiliklar pedagog o‘z pedagogik qobiliyatining amaliy yo‘nalishlarini yaxshi bilmasligi, iste’dodning pedagogda yo‘qligi natijasida ro‘y beradi”. Maxsus qobiliyatga ega bo‘lgan pedagoglar faqat o‘zlari egallagan kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug‘ullanadilar. Biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini ta’minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi talant deyiladi. Qobiliyat kasbiy faoliyat jarayonida sayqallanib boradi. Buning uchun pedagogda layoqat, zehn va qiziqish bo‘lishi kerak. Pedagogik qobiliyatning asosiy sifatlari va xususiyatlari.

Pedagogik–psixologiyada pedagog qobiliyatining cheklangan turlari yo‘q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko‘payib va o‘zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha “o‘zgarmas irsiyat” nasldan – naslga o‘tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari ajratib ko‘rsatilgan:

1. O‘z kasbiga muxabbat, bolalarni seva olishi.
2. O‘z mutaxassislik fanini yaxshi bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik taktga (odob va go‘zallikka) ega bo‘lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5. O‘z mehnatiga ijodiy yondashish.
6. Javobgarlikni his etish.
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

Pedagog faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o‘ziga xos tizimlari mavjud. Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlari bilan farqqilinadi:

- asosiy xususiyatlar;
- tayanch xususiyatlar;
- yetakchi xususiyatlar;
- yordamchi xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyatning samarali bo‘lishini va shart-sharoitini ifodalamasdan, balki ko‘p jihatdan muvaffaqiyatli ishlashning natijasi hamdir.



Pedagogik texnika – pedagogning nafaqat ta’lim–tarbiy jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo’lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir.

Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – bu avvalo pedagogning mahoratini belgilovchi kasbiy ko‘nikmalari hisoblanadi, ya’ni uning savodli va ifodali so‘zlay olishi, o‘z fikr-mulohazasini va bilimni tushunarli tilda ta’sirchan bayon qilishi, his-tuyg‘usini jilovlay olishi, o‘zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo‘lishi, aniq imo-ishora, ma’noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so‘zning cheksiz qudrati orqali bolalar ongiga va tafakkuriga ta’sir o‘tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo‘lishi kabilardir.

Pedagogning pedagogik texnikasi qanday ko‘nikma va malakalardan iborat ekanligi, pedagogik texnika vositasida pedagog ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni zamonaviy talablar asosida qanday tashkil qilishi, ta’lim oluvchilarga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishida qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi muammolar hozirgi kungacha dunyo olimlarining diqqatini o‘ziga jalb etib kelmoqda. Hozirgi kund apedagogik texnika tushunchasi ikkita guruhga bo‘lib o‘rganiladi. Birinchi guruh komponentlari pedagogning shaxsiy axloqiy fazilatlari va xulqi bilan bog‘liq bo‘lib, ta’lim–tarbiyaja rayonida o‘z– o‘zini boshqarish malakalarida ( refleksiya) namoyon bo‘ladi:

- ta’lim-tarbiyaja rayonida o‘z xatti-harakatlarini boshqarishi (mimika, pantomimika);
- ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z hissiyotini va kayfiyatini jilovlay olishi va turli nojo‘ya ta’sirlarga berilmaslik;
- mukammal ijtimoiy perseptiv qobiliyatlarga (diqqat, kuzatuvchanlik, xayol) egaligi;
- nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilishi va o‘z o‘rnida qo‘llay olishi. Pedagogik texnikaning ikkinchi guruh komponentlari pedagogning shaxs va jamoaga ta’sir ko‘rsatish malakalari bilan bog‘liq bo‘lib, bu guruh ta’lim-tarbiya jarayonining texnologik tomonini qamrab oladi:
- pedagogning didaktik, tashkilotchilik, konstruktiv, kommunikativ qobiliyatlari;
- ma’lum bir reja asosida o‘z oldiga qo‘yilgan talablarning ajarilishini nazorat qilishi;
- ta’lim muassasasida va pedagogik jamoasida ta’lim-tarbiya bilan bog‘liq bo‘lgan ijodiy faoliyatni tashkil eta olishi;



- bolalar bilan pedagogik muloqot jarayonini bir muvozanatda saqlab boshqara olishi.

Pedagogning tarbiyalanuvchi ob'ektlar oldida o'z harakatlarini boshqarishid aaktyorlik san'atiga xos bo'lgan xususiyatlari, ya'ni mimik va pantomimik qobiliyatlari muhim rol o'ynaydi. Aktyor bir obrazni ma'lum bir muddatda tayyorlab, bir yoki bir necha marotaba bir xil ko'rinishda sahnada namoyish etsa, pedagog butun o'quv yili davomida, har bir darsda yangi mavzuni o'tilgan mavzular bilan bog'lab, zamonaviy innovatsion usullar vositasida bolalar ongiga yetkazish uchun chuqur tayyorgarlik ko'radi, guruh jamoasidagi o'ziga xos pedagogik va psixologik muhitni, har bir ta'lim oluvchining shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olib pedagogik faoliyat ko'rsatishga majburdir. Bunday ulkan mas'uliyatni yuqori saviyada bajarish uchun pedagogdan yuksak pedagogik texnik tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichi bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning eng muhim bo'g'ini hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotibolalarni tarbiyalash, qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlashda yetakchi o'rin tutadi va sog'lom, har tomonlama yetuk bolalarni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta'lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim bola 6-7 yoshga yetguncha oilada, hamda davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'llanadigan davlat talablariga muvofiq, jismoniy, ma'naviy va intellektual jihatdan maktabda o'qishga tayyorlashni nazarda tutadi. Maktabgacha ta'limdagi bunday muhim vazifalarni amalga oshirishda tarbiyachi-pedagoglik kasbi ayniqsa, alohida ahamiyatga ega. O'zi o'qiydigan, doimo bilimni oshirib boradigan kishi pedagogdir, degan qoida tarbiyachiga ham bevosita talaluqlidir. Doimo o'zini tarbiyalash bilan, tarbiya ilmi va san'atini egallash bilan shug'ullanadigan tarbiyachigina haqiqiy tarbiyachi bo'la oladi. Bu borada ulug' allomalardan biri "bolani tarbiyalash tarbiyachining o'z-o'zini takomillashtirishidan boshqa narsa emas", degan edi.

Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalash dek muhim, faxrli va shu bilan birga ma'suliyatli vazifalarni bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga, ta'lim-tarbiya vazifalarini hal



etishga ijodiy yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borishga yordam beradi.

Tarbiyachining o‘ziga talabchanligi, o‘zining har bir hatti-harakatini nazorat qilib boraolishi davlatimiz maktabgacha tarbiya muassasalari oldiga qo‘ygan talablarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning garovidir. Bunga quyidigilar kiradi:

- Bolaningsog‘liginisaqlashvamustahkamlash;
- Aqliy va ruhiy qobiliyatlarini o‘stirish;
- Jamiyatimizning, milliy madaniyatimizning g‘oyaviy- axloqiy tamoyillariga mos keluvchi e‘tiqod va qarashlarni tarkib toptirish;
- Ona- vatanga muhabbatni, ijtimoiy faollikni shakllantirish, mas’uliyat, do‘stlik hissini, halollik, mehnatsevarlikni tarbiyalash.

### **Xulosalar**

Xulosa qilib shuni aytishimiz joizki bola shaxsining shakllanishida tarbiyachining yetakchi rol o‘ynashi uning har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida javobgar ekanligini taqozo etadi. Tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o‘yinlarda, mashg‘ulotlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida va ular bilan bo‘ladigan muomalada ta’sir ko‘rsatadi. U har bolani diqqat bilan o‘rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagoglik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvorini, ish natijalarini haqqoniy baholashi kerak; ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsata olishi, oilalaridagi ahvoli bilan qiziqishi zarur.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Qodirova F.R, Toshpo‘latova Sh.Q, Kayumova N.M., Agzamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
2. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo‘stoni. 2013 y. Darslik.
3. Axmedjanov M.M., Xo‘jayev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 2014
4. Yo‘ldoshev J., Hasanov S. Pedagogik texnologiyalar. – T.: “Moliyaiqtisod” nashriyoti, 2009.
5. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.

